




Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

SHARQ MASH'ALI

Jurnal veb-sayti:
<https://orientalstudies.uz/index.php/ot>



AHMAD YASSAVIYNING TURKIY XALQLAR TARIXIDA TUTGAN O'RNI HAQIDA

HASAN NODIRXON

*Professor v.b., filologiya fanlari doktori,
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xoja Ahmad Yassaviy, yassaviylik, turkiy, "Devoni hikmat", hikmatlar, tasavvuf, izdosh, tadqiqot.

Annotatsiya. Ma'lumki, Xoja Ahmad Yassaviy turkiy xalqlar orasida bиринчи bo'lib mustaqil tariqatga asos solgan, tasavvuf adabiyotida hikmat an'anasini boshlab bergan mutasavvif ijodkordir. Piri Turkiston hayotligida va undan keyingi davrlarda uning hikmatlariga ergashib so'fiyona to'rtliklar yozish ushbu tariqatda qudsiy bir odatga aylangan. Bu she'rler turli davrlarda ko'chirilib "Devoni hikmat" yoki "Hikmatlar" deya nomlangan to'plamlardan o'rinn olgan. Xoja Ahmad Yassaviyning fikr-qarashlari turkiy ularning ko'plab vakillariga qadar yetib bordi va ularning ma'naviy, adabiy hayotlarida o'z o'rmini topdi.

Ahmad Yassaviy ta'limoti o'z davrida va undan keyingi zamонларда Turkiston diyorida tasavvutiy qarashlarning ahli sunnat e'tiqodiga muvofiq ravishda o'rinn olishiga hissa qo'shdi. Uning fikr-qoyalari ta'sirida so'fiyona turk adabiyoti chig'ir ochdi. Buning natijasida xususan Movarounnahrda yassaviylikka doir adabiyotlar yuzaga keldi, ularda Ahmad Yassaviy, uning xalifa va izdoshlari haqida, hukmdorlar va xalqning ulug' pir bilan bo'lgan munosabatlari to'g'risida ko'plab qiziqarli naql, rivoyat va ma'lumotlarga o'rinn beriladi. "Devoni hikmat" nusxalaridagi yassaviya izdoshlarining ijod namunalari ham yassaviylik g'oyalarni keyingi asrlarga qadar yetib borishiga hissa qo'shdi. Alisher Navoiydan boshlab Mashrab, So'fi Olloyor, Majzub va Huwaydo kabi ko'plab irsoniy she'riyat vakillari ijodida yassaviylik ta'sirining ızlarini kuzatish mumkin. Zero, Ahmad Yassaviy o'z fikr-qarashlarini xalq og'zaki she'riyatining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda ifodalash bilan bir qatorda so'z, fikr va tuyg'ularning o'quvchi ko'ngliga oson kirib borishini ham ta'minlashga muvaffaq bo'lgan

edi. Nafaqat O'rta Osiyo, balki turkiy xalqlar vakillarining adabiyotlarida ham Ahmad Yassaviy ta'lomitini davom ettirgan Yunus Emro, Sayyod Hamza, Maxtumquli, Mavlo Quli, Qul Ali, Haji Bektosh Valiy kabi izdoshlarni ko'plab uchratish mumkin. Demak, turkiy adabiyotning tarixiy shakllanish va rivojlanish jarayonlarida, diniy tasavvufiy g'oyalarning o'rinni egallashida, Yassaviy va maktabi ijodiyotining o'rni muhim bo'lgan. Maqolada Xoja Ahmad Yassaviy haqida turkiy xalqlar olimlari tomonidan amalga oshirilgan ilmiy ishlar xususida muxtasar kuzatishlar bayon qilinadi.

ABOUT AHMAD YASSAVI'S PLACE IN THE HISTORY OF TURKIC PEOPLES

HASAN NODIRKHON

*Professor, Doctor of Philological Sciences,
Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan*

ABOUT THE ARTICLE

Keywords: Khoja Ahmad Yassawi, Yassawi, Turkic language, "Devoni Hikmat", wisdom, Sufism, follower, research.

Abstract. It is known that Khoja Ahmad Yassawi was the first among the Turkic peoples to found an independent order, a mystic creator who laid the foundation for the tradition of wisdom in Sufi literature. During the life of Piri Turkestan and later, following his wisdom, writing Sufi quatrains in this order became a sacred custom. These poems are taken from collections called "Devoni Hikmat" or "Hikmat", which were copied at different periods. The views of Ahmad Yassawi reached almost all representatives of the Turkic countries and found their place in their spiritual and literary life.

The teachings of Ahmad Yassawi contributed to the establishment of Sufi views in Turkestan in his time and in later times, corresponding to the Sunna faith. Under the influence of his ideas, Sufi Turkic literature opened its doors. As a result, literature on Yassavism arose, especially in Mavarunnahr, which contains many interesting stories, narratives and information about Ahmad Yassawi, his caliph and his followers, about the relations of the rulers and the people with the great leader. Examples of the works of Yassawi's followers in copies of "Devoni hikmat" also contributed to the transfer of Yassawi's ideas to the following centuries. Beginning with Alisher Navoi, traces of Yassawi's influence can be seen in the works of many representatives of poetry, such as Mashrab, Sufi Olloyor, Majzub and Huvaydo. After all, Akhmed Yassawi managed to express his views using the inner possibilities of folk poetry, and also to ensure that words, thoughts and feelings easily penetrated the heart of the reader. Not only in the literature of the representatives of Central Asia, but also in the literature of the Turkic peoples, one can find many followers, such as Yunus Emro, Shayyod Hamza, Makhtumquli, Mavlo Quli, Qul Ali, Haji Bektash Vali, who continued the teachings of Ahmad Yassawi. Thus, in the processes of historical

formation and development of Turkic literature, the work of Yassawi and his school played an important role in place of religious and mystical ideas. The article provides brief scientific observations about Ahmad Yassawi, which were carried out by scientists of the Turkic peoples. The article provides brief scientific observations about Ahmad Yassawi, which were carried out by scientists of the Turkic peoples.

О МЕСТЕ АХМАДА ЯССАВИ В ИСТОРИИ ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

ХАСАН НОДИРХОН

Профессор, Доктор филологических наук,
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ходжса Ахмед Яссави, Яссави, тюркский язык, «Девони хикмат», мудрость, суфизм, последователь, исследование.

Аннотация. Известно, что Ходжса Ахмед Яссави первым среди тюркских народов основал самостоятельную орден, мистик-творец, положивший начало традиции мудрости в суфийской литературе. При жизни Пира Туркестана и позднее, следуя его мудрости, написание суфийских четверостиший в этом порядке стало священным обычаем. Эти стихи взяты из сборников под названием «Девони хикмат» или «Хикмат», которые переписывались в разные периоды. Взгляды Ахмада Яссави дошли почти до всех представителей тюркских стран и нашли свое место в их духовной и литературной жизни.

Учение Ахмада Яссави способствовало утверждению в Туркестане в его время и в более поздние времена суфийских воззрений, соответствующих суннатскому верованию. Под влиянием его идей открыла свои двери суфийская тюркская литература. В результате этого возникла литература по яссавизму, особенно в Моваруннахре, в которой имеется много интересных рассказов, повествований и сведений об Ахмаде Яссави, его халифе и его последователях, об отношениях правителей и народа с великим вождём. Примеры произведений последователей Яссави в экземплярах «Девони хикмат» также способствовали донесению идей Яссави до следующих столетий. Начиная с Алишера Навои, следы влияния Яссави можно наблюдать в творчестве многих представителей поэзии, таких как Маираб, Суфи Оллойор, Маджзуб и Хувайдо. Ведь Ахмад Яссави сумел выразить свои взгляды, используя внутренние возможности народной поэзии, а также добиться того, чтобы слова, мысли и чувства легко проникали в сердце читателя. Не только в литературе представителей Средней Азии, но и в литературе тюркских народов можно найти множество последователей, таких как Юнус Эмро, Сайод

Хамза, Махтумкули, Мавло Кули, Кул Али, Хаджи Бекташ Вали, которые продолжили учение Ахмеда Яссави. Итак, в процессах исторического становления и развития тюркской литературы важную роль на месте религиозно-мистических идей играло творчество Яссави и его школы. В статье приводятся краткие научные наблюдения об Ахмеде Яссави, которые проводились учеными тюркских народов.

*Xushlamaydur olimlar bizni ayg'an turkini,
Orif agar eshitsa, ochar ko'ngul mulkini.*

Xoja Ahmad Yassaviy

KIRISH.

Xoja Ahmad Yassaviy turkiy tasavvuf she'riyatining asoschisi, o'zbek adabiyotida hikmatnavislik an'anasing boshlovchisidir. Asrlar mobaynida barcha turkiy xalqlarning madaniy hayotida o'chmas iz qoldirgan, ma'naviy hayotida beqiyos o'rinn tutgan murshidi komil sifatida Ahmad Yassaviy nomi, ta'limoti hamda hikmatlari ma'lum va mashhur.

Zero, Xoja Ahmad Yassaviyning fikr-qarashlari Movarounnahr bilan cheklanib qolmay, Onado'li, Dashti Qipchoq, Idil-Uralgacha borib yetgan, asrlar mobaynida qozoq, qirg'iz, o'zbek, usmonli turk, ozarbayjon, turkman, boshqird, tatar kabi turkiy xalqlar shoirlarining asarlari uchun ma'naviy oziq va ilhom manbai vazifasini bajarib kelgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Shu jihatdan bo'lsa kerak 2016-yil UNESCO Bosh konferensiyasining Ahmad Yassaviy vafotining 850-yilligini keng nishonlash haqida chiqargan qarori Ahmad Yassaviyning hayoti, ijodiyoti va ta'limotini o'rganishni yana bir karra kuchaytirib yubordi [30]. Yassaviyshunoslik tarixiga nazar tashlanganda, mavzuning turkiy xalqlar olimlari tomonidan ancha yillardan buyon tomonidan o'rganib kelinadi. Tarixdan ma'lumki, Yassaviy hayoti, ijodi, tariqati va ta'limotini o'rganish uning tirikligidayoq boshlangan. Bu o'rinda, avvalo, So'fiy Muhammad Donish-mandning "Mir'ot ul-qulub", Mavlono O'rung Qo'yloqiy tomonidan turkiyga o'girilgan "Nasabnama", Ahmad Haziniying "Javohir ul abror" va "Manba' ul abhor" kabi asarlarini qayd etish joiz. XIX asrga kelib G'arb dunyosida ham turk, tatar, turkman, qozoq, rus, nemis, ingлиз, olimlari tomonidan bir qancha ishlar bajarildi. Istiqlol sharofati bilan milliy, madaniy, adabiy, tarixiy va diniy qadriyatlarimizni tiklash imkoniyati yaratilganligi tufayli so'nggi chorak asr mobaynida o'zbek olimlarining Yassaviy hayoti, ijodi, tariqati va uning izdoshlariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot va maqolalari yaratildi hamda ularning bir qismi xorijda ham chop etildi [9; 16; 17; 91]. Yassaviyning turkiy xalqlar adabiyoti va ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'siri ko'rsatildi. Yassaviy va uning izdoshlari ta'sirida XIII asrdan e'tiboran Onado'lida diniy ma'rifiy turk adabiyoti shakllangani tasdiqlandi. Yassaviy va "Devoni hikmat"ga doir ilmiy ishlar amalga oshirilib, Yassaviyning manqabalari va maqbarasi to'g'risidagi mulohazalar, hikmat namunalaridan tarjimalar, Yassaviyning ma'naviy nufuzi, ta'siriga doir ilmiy xulosalar chiqarildi. Yassaviylikka oid ayrim yangi topilgan manbalar ilmiy taomilga kiritildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda tarixiy, qiyosiy va tipologik tadqiqot usullari qo'llanilgan. Mavzuga doir yurtimizda va xorijda e'lon qilingan adabiyotlar murojaat etilgan.

Masalan, Qozog'istonda Ahmad Yassaviy va izdoshlariga doir qator ilmiy, ommabop maqola va kitoblar e'lon qilingan, tadqiqotlar amalga oshirilgan, ilmiy amaliy anjumanlar o'tkazilgan, "Devoni hikmat"ning turli nashrlari chop ettirilgan [53; 54; 78; 81; 85; 98 va boshqa].

Tatar va boshqird olimlarining Ahmad Yassaviy va izdoshlari mavzusidagi tadqiqotlari ham e'tiborga loyiqidir. Chunki bu ishlarda olimlar ulug' mutasavvifning tatar adabiyotiga, umuman, tatar xalqining ma'naviy hayotiga ko'rsatgan ta'sirini dalillar asosida isbotlab berishgan [66; 67; 68; 72; 75; 76; 77; 99]. Chunonchi, Z.V.To'g'onning yozishicha, bolaligida uning oilasiga Mullaql devona degan darveshning ta'siri kuchli bo'lgan ekan. Devona so'fiyona she'rlar o'qir, jahriy zikrga tushar ekan. Uning eslashicha, ota onasi u darveshdan ko'plab so'fiyona she'rlarni, masalan, Ahmad Yassaviy, Farididdin Attor va Jaloliddin Rumiy she'rlaridan o'rganishgan ekan [6; 66; 101].

F.Hakimjon o'z maqolasida Yassaviy va Boqirg'oni asarlari Bulg'orda keng tanilgan bo'lib, "Yassaviy hikmatlarining Idil bo'yalarida keng tarqalishi, shoir, adib, ayniqsa, ziyoqlilar uchun yozma til namunasigina emas, balki yangi paydo bo'lgan tasavvufiy tuyg'u va fikrlarni qabul qilishda ham o'rnat bo'lgan"ini yozadi [28].

X.Usmonov, A.Sibg'atullina, A.Tohirjonov va boshqa tadqiqotchilarining qayd etishlaricha, Mahmud Bulg'oriy, Qutb, Husom Kotib va Qul Alining asarlarida, "Qissai Oviq" va Sayfi Saroyi she'rlarida Yassaviy va Boqirg'oni asarlarining ta'sirini ochiq ko'rish mumkin [96; 99:126, 188, 332, 380-385, 464 b; 101:178 b; 2:132 b].

Yana tadqiqotchilarining yozishicha, nafaqat qadimgi davr, balki XVIII-XIX asrdagi tatar tasavvufiy she'riyati ham bevosita Yassaviy va Boqirg'oni adabiy maktabidan ilhomlangan. Bu davrning ilg'or adiblaridan Abdurrahim Utiz Imaniy Bulg'oriy (1756-1834) va Tojiddin Yolchig'o'lning (1768-1838) ijodlari ham bevosita yassaviya adabiy maktabi bilan bog'liqdir. Yolchig'o'l So'fi Olloyorning "Sabot ul-ojizin" asariga yozgan "Risolai Aziza" sharhi (1796-1797) bilan tanilgan. Yolchig'o'l qalamiga mansub she'rlar ham o'rin olgan "Risolai Aziza" dunyo yuzini ko'rgan paytlaridanoq shuhrat taratib, madrasalarda darslik sifatida ham o'qitilgan. 1847-yil Peterburgda, 1850-yildan boshlab esa Qozonda deyarli har yil chop etilgan bu asar Toshkentda ham chop etilgan [97]. Demak, tatar xalqi tarixi va adabiyotida Ahmad Yassaviy hamda izdoshlarining fikr-qarashlari o'ziga xos mavqega ega bo'lgan.

Turkman olimlari Ahmad Yassaviy qarashlarining turkman adabiyotiga ta'siri masalasida ham yuqorida e'tiroflarga uyg'un fikrlar bildirishgan [3; 5; 13:38-44 b; 15:79-92 b; 71; 85; 100;]. Inchunun, Ahmad Yassaviyning nomi, o'tmish asrlarda turkman xalqi orasida mashhur edi. Y.E.Bertels turkman xalqining adabiy o'tmishiga bag'ishlangan tadqiqotida saljuqiy hukmdorlari o'z paytida forsiy adabiyotga qiziqqan bir davrda turkman xalqining ko'pchiligi Ahmad Yassaviy va u asos solgan yassaviylik maktabi ijodini o'qib-o'rganganligini qayd etadi [81:144, 193-194 b;].

Turkmanistonda olib borilgan tadqiqotlarda XVIII va XIX asr turkman adabiyotining ilg'or vakillari Nur Muhammad Andalib, Davlat Muhammad Ozodiy va Maxtumqulining Ahmad

Yassaviy ijodiyotidan ta'sirlanganligi haqida ham fikrlar bildirilgan [26; 94:127-153, 146-147 b; 95; 96:136,186 b]. Shuningdek, Saidnazar Saydiy, Zaliliy, Kamina, Saydullo Saydiy, Tolibiy, Kotibiy, Zinhoriy, Mullanafas, Matojiy, Miskinqilich kabi qator turkman shoirlari Yassaviy asarlaridan ilhomlangan holda o‘z davrining axloqiy fikr-qarashlarini mohirona aks ettirishgan [48:60 b; 102:56,128 b].

A.Ahmadov, Y.Qozoq kabi olimlar turkman adabiyotining manbalari va shakllanishi haqida gapirarkan, Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarining turkman she’riyatining tobora shakllanishiga yo‘l ochganligini qayd etsalar [3:67 b], Y.Oqgul adib ham shaxsi bilan, ham turkman yurtida faoliyat ko‘rsatgan xalifalari va darveshlari bilan xalq inonch-e’tiqodiga teran ta’sir ko‘rsatganini hamda hikmatlar bilan oziqlangan didaktizm barcha turkman shoirlarining mushtarak fazilatiga aylanganini yozadi [11:48 b]. Shuningdek, yana bir guruh olimlar turkman xalqining Ahmad Yassaviy va izdoshlari bilan bog‘liq jihatlari haqida to’xtalganlar [75; 27:142 b].

Tahlil va natijalar

Ayonki, Turkiyada Ahmad Yassaviy hayoti, ijodi va ta’limoti mavzusida juda ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan. Turkiyada yassaviyshunoslik, deganda birinchi bo‘lib Fuad Kupruli xotirga keladi. “Turk adabiyotida ilk mutasavviflar”, “Turk adabiyoti tarixi”, “Adabiyot tadqiqotlari” va boshqa asarlarida olimning Ahmad Yassaviy, yassaviylik va ta’sirlariga doir qimmathi xulosalari aks etgan [43;44;45].

Tarixdan ma’lumki, Markaziy Osiyodagi turkiyzabon xalqlarning g‘arba tomon ko‘chib borishi natijasida diniy-tasavvufiy adabiy an'analar Onado‘lining lisoniy, adabiy va, umuman, ma’naviy madaniy hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan hamda bu muhitda mustahkam o‘rin olgan [17; 59:274-276 b]. Muhojirlar orasida Xuroson va Movarounnaharda yetishgan darveshlar, Ahmad Yassaviy tariqatiga mansub so‘fiylar ham bo‘lgan [45:200 b]. Ko‘prulining yozishicha, Ahmad Yassaviy va izdoshlari ta’siri ostida XIII asrdayoq Onado‘lida diniy-ma’rifiy turk adabiyoti shakllangan edi. Yassaviy boshlab bergen va Sayyod Hamza kabi xalq mutasavviflari tomonidan davom ettirilgan barmoq vaznida tasavvufiy she’rlar yozish an'anasi nihoyat Yunus Emroda haddi a’losiga yetgan edi. Natijada, Ahmad Yassaviydan boshlab Yunus Emroga va undan keyin yaqin kunlarga qadar xalqona va milliy adabiyot davom etib kelgan [45:234, 239, 355-357 b].

A.Qoraxon ham bu haqiqatni e’tirof etib shunday yozadi: “Onado‘li tasavvuf she’riyati tarixiga nazar tashlasak, Yassaviy hikmatlari uning iqtidorli izdoshi Yunus Emro tomonidan “xalq tasavvuf adabiyoti”, “xonaqoh adabiyoti” deya nomlangan adabiy-tasavvufiy oqim shaklida davom etganini ko‘ramiz” [2:65 b].

Boshqa bir qator turk olimlari Yunus Emro va Bektosh Valiy bilan bir qatorda Sayyod Hamza, Aziz Mahmud Hudoiy va boshqa bir qancha shoirlarning ham Yassaviy va izdoshlaridan ilhomlanishlari, oqibatda, Onado‘lida milliy tasavvuf adabiyoti yuzaga kelgani, bu adabiyot vakillarining asarlari shakl, uslub va ma’no-mohiyat jihatidan Yassaviy hikmatlariga o‘xshashligini yozishgan.

Usmonli turk adabiyotining bilimdoni, ingliz olimi E.Gibb Yunus Emroning “Devoni hikmat” bilan yaqindan tanish bo‘lganligi, shu uchun Yassaviy hikmatlari bilan Emro she’rlari

orasida shakl va uslub jihatidan juda yaqin o‘xshashlik mavjudligini qayd etgan bo‘lsa [23:169 b], M.Tahrali Yassaviy va izdoshlarining asarlaridagi diniy talqinlar Onado‘li turkchasida ilk bor Yunus Emro ijodida o‘z ifodasini topganligini yozadi [47:13 b]. Bu haqda yana boshqa bir guruh olimlar ham o‘z fikrlarini bildirib o‘tishgan [84:22 b; 28:XXXVI b; 16:335 b; 66; 58:132-133 b; 67:14-15 b; 10:211-217 b].

Xoja Ahmad Yassaviyning Onado‘lidagi yana bir yirik izdoshi Hoji Bektoshi Valiydir. Uning hayoti va faoliyatini tadqiq etgan ko‘pchilik olimlar yassaviylikning Onado‘liga kirib borishida Hoji Bektosh Valiyning ham hissasi borligini qayd etadilar [35:308 b; 28:XIX-XXXIII b; 24:53 b; 57:584 b; 52: 759-768 b].

Yassaviy va Bektosh fikrlarining yaqin o‘xshashligi mavzusiga bag‘ishlab Abdurahmon Go‘zal alohida kitob yozgan [1]. Mahmud As’ad Jo’shon nashrga tayyorlagan Hoji Bektosh Valiyning “Maqolot” [28], Uzun Firdavsiyning “Valoyatnomai Hunkor Hoji Bektosh Valiy” [65], Darvish Burhonning “Valoyatnomai Hojim Sulton” [29], Haziniyning “Javohir ul-abror”, Ali Safiyuning “Rashahot ul-aynal-hayot”, Haririyyodanining “Tibyon ul-vasoilil-haqoyiq”, Alining “Kunh ul-axbor” [12: 13-22 b], Chalabiyning “Sayohatnama” [25:12 b] va boshqa bir qator qadimiylar Yassaviyning Onado‘li darveshlari bilan (bularning asosiyilari shayx Luqmoni Parranda [8], Sari Saltuq [62:1988-1990b; 39; 40b], Qutbiddin Haydar, Amirchi Sulton [4:129-208 b] kabilardir), ayniqsa, Hoji Bektosh bilan bog‘liqligini ko‘rsatuvchi ma’lumotlar mavjud. Avliyo Chalabiy “Sayohatnama” asarida Kavkazdan tortib Bolqongacha bo‘lgan hududda yassaviya mutasavviflariga tegishli maqbara, xonaqoh va zoviyalar haqida bat afsil ma’lumot beradi [25].

Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar orasidagi nufuzi borasida K.Brokelmann, T.Menzel, A.Semenov, A.Borovkov kabi sharqshunoslar ham o‘z ishlarida to‘xtalganlar. Chunonchi, A.Semenov o‘z maqolasida Ahmad Yassaviyning hayoti, ta’lim-tarbiyasi, tariqat faoliyati, ma’naviy martabasi va maqbarasi xususida to‘xtalish bilan birga, Ali Safiyuning “Rashahot ayn al hayot”, Doro Shukuhning “Safinai avliyo” va G‘ulom Sarvar Lohuriyning “Xazinat ul asfiyo” kabi asarlari asosida ulug‘ shayxning hikmatlar muallifi ekanini isbotlashga harakat qiladi [97:121-130b]. A.Borovkov Yassaviy hayoti, hikmatlari va izdoshlari haqida ma’lumot berarkan, hikmatlarning til xususiyatlarini tahlil etishga uringan [82:229-250b]¹.

G’arb olimlaridan C.Brockelmann Qul Ali va uning Yusuf (a.s.) qissasiga bag‘ishlangan tadqiqotida “Islom dunyosiga oid turkiy adabiy obidalarning eng kattalaridan uchinchisi «Qutadg‘u bilig” va Yassaviyning “Devon”idir» deb yozadi. Unga ko‘ra Qul Alining Yusuf qissasidagi she’rlarning vazni Ahmad Yassaviy hikmatlari kabitidir, ya’ni 11-12 bo‘g‘inlar orasida yozilgan [20].

T.Menzel “Qadimgi turk mistiklari” nomli maqolasida esa Yassaviy, “Devoni hikmat”, uning lisoniy jihatlari, yassaviylikdagi xilvat, zikr va ularning xususiyatlariga bat afsil to‘xtaladi. Yassaviylik tariqatining turkiy xalqlar orasidagi ahamiyati, xususan, Onado‘li xalqining tasavvufiy manbasi yassaviylikka borib taqalashini, hikmatlarning millat uchun ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchiga ko‘ra, Ahmad Yassaviy hikmat aytishda, Sharqiy turkiy

¹ Ushbu maqolaga o‘zbek olimlarimiz o‘z munosabatlarni bildirishgan: А.Алиев, Тилимиз донишманди, “ЎзАС”, 1993, 29 октябрь; И.Хаққул, Олдингдан оқкан сувнинг... “ЎзАС” 2004, 1 октябрь.

tillarning she'r mexanikasiga kirgan va turkiy bo'g'inlar soniga asoslangan milliy she'r vazni, shaklini tanlagan. "Devoni hikmat"ning tili Sharqiy turkiy til bo'lib, "Qutadg'u bilig" va O'rxun yozuvlariga yaqindan aloqadordir. Shu bois devon turk-islom adabiyotining eng qadimgi namunasi sifatida qadrlidir [63:269-289b].

Xulosa va takliflar

Ahmad Yassaviyning Turkiston tarixida qilgan eng muhim tarixiy xizmatlaridan yana biri shu ediki, uning va izdoshlarining vositasida Markaziy Osiyo mintaqalarida sunniy islam aqidasi tarqaldi. Natijada, Yassaviy va darveshlari turkiy xalqlar orasida shia va rofiziylilik kabi botil oqimlarning tarqalishiga to'siq bo'ldilar. Shunday qilib, turkiy adabiyotda Ibrohim Qafaso'g'li aytganidek, "yassaviy shoirlarining ta'siri bilan so'fiyona turk adabiyoti chig'iri ochilgan edi" [33:378b].

Ahmad Yassaviyning turkiy xalqlar orasida mashhur bo'lgan izdoshlari va ularning ta'siri xususida quyidagicha xulosaviy fikrlar kelib chiqadi. Birinchidan, yuqorida keltirilgan naql, rivoyat va boshqa ma'lumotlardan ma'lum bo'lmoqdaki, yassaviylikka doir manbalarda Yassaviy va uning xalifalari haqida ko'plab qiziqarli ma'lumotlar mavjud bo'lib, ularda hukmdorlar, izdoshlari va xalqning ulug' pir bilan bo'lgan munosabatlari yorqin aks ettirilgan. Ikkinchidan, "Devoni hikmat" nusxalarida yassaviya izdoshlarining buyuk shayx dunyoqarashi ta'sirida yozgan ko'plab ijod namunalari o'rin olganki, ular yassaviylik g'oyalarini keyingi asrlarga qadar o'zgarmay yetib borishiga xizmat qilgan. Uchinchidan, I.Haqqulning yozishicha, "Alisher Navoiydan boshlab Mashrab va Huvaydogacha bo'lgan bir qancha shoirlarning ijodlarida ushbu an'ana ta'sirining izlarini kuzatish mumkin" [105:85b]. Nafaqat Mashrab, So'fi Olloyor, Sayqaliy, Huvaydo, Majzub kabi Movarounnahrda yashab ijod etgan irfoniy she'riyat vakillari, balki turkiy xalqlarning Yunus Emro, Nasimi, Maxtumquli, Mavlo Quli, Qul Ali, Oshiq Vaysal kabi ko'plab shoiru adiblari ham Ahmad Yassaviy she'riyatidan ta'sirlanganlar. To'rtinchidan, adabiy ruhoniy ta'sir haqida gap ketganda shuni aytish kerakki, Ahmad Yassaviy o'z fikr-qarashlarini xalq og'zaki she'riyatining ichki imkoniyatlaridan foydalangan holda ifodalash bilan bir qatorda so'z, fikr va tuyg'ularning o'quvchi ko'ngliga oson kirib borishini ham ta'minlashga muvaffaq bo'lgan edi. Bunga uning izdoshlari ham alohida ahamiyat berishgan.

Turkiy xalqlar adabiyotida Ahmad Yassaviy ta'limotini davom ettirgan izdoshlarni bevosita Yassaviy yo'lida va undan ta'sirlanib hikmat yozgan shoirlar (Hakim ota Sulaymon Boqirg'oniy, Toj Xoja, Bobo Mochin, Kamol Shayx Iqoniy, Shams O'zgandiy, Shayboniy, Ubaydiy, Qul G'aribiy, Darvish Ali singari), ulug' pirning fikr qarashlaridan ta'sirlangan mutasavvif adiblar (Yunus Emro, Sayyod Hamza, Maxtumquli, Mavlo Quli, Qul Ali, Mashrab, Sayqaliy, Majzub Namangoniy, Huvaydo Chimyoniy, So'fi Allohyor kabi), yassaviy qarashlarini tariqatda davom ettirgan mutasavviflar (Qutbiddin Haydar, Hoji Bektosh Valiy, Mansur ota, Sadr ato, Keshlig' ato, Sayyid ato, Bobi mo Husayn, Zangi ato, Said ota) sifatida uch guruhga bo'lish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, turkiy adabiyotning keyingi davrlardagi shakllanishi va taraqqiyotida, unda diniy tasavvufiy g'oyalarning mustahkam o'rin egallashida, hech shubhasiz, Ahmad Yassaviy va yassaviya maktabi an'analarining mavqeい nihoyatda baland bo'lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdurahmon Go'zal. Yassaviy "Faqrnoma"si. Tarj. Nodirxon Hasan. Toshkent: Navro'z, 2014;
2. Karahan A. XIV. yüzyıl sonlarına kadar Türk kültürü ve edebiyatı. İstanbul, 1985;
3. Mahmedov A., Kazak Y. Türkmen şíiri // Türkmenistan'da toplum ve kültür (derleyen: Büşra Ersanlı ve Orazpolat Akaev). Ankara, 1998;
4. Ocak A.Y. Emirci Sultan ve Zaviyesi / TED dergisi, 9 (1978), s.129-208;
5. Бекмирадов А. Магтумкулининг поэзиясинда шахирана деп хем тезечиллик гўзлелгери. Туркменистан Илмлар Академияси, Ашгабат, 1989;
6. Раҳим А., А.Азиз. Татар адабиёти тарихи. Қозон, 1922. I-жилд;
7. Abdirasikyzy A. Türk edebiyatında Hikmet türü. Uluslararası Hoca Ahmed Yesevi Sempozyumu. 20-21 Şubat 2010. Bağcılar-İstanbul;
8. Abdurahmon Jomiy. Nafahot ul-uns. Tehron, 1337 h.sh;
9. Ahmed Yesevi (Hikmetleri). Haz. İbrahim Hakkul. Çev. E.S.Toplu. Ankara: MEB yayın, 1995;
10. Akarpınar B. Divan-i Hikmet ve etkileri / Türk Edebiyatı Tarihi. İstanbul, 2006, s.211-217;
11. Akgül Y. Hoca Ahmet Yesevi'nin Hazar ötesi Türkmenlerine tesiri ve bu çerçevede bazı tespitler // Bılıg, 8/Kış. 1999;
12. Aktan Ali, "Kunhul ahbar'a gore Ahmed Yesevi / Milletlerarası Ahmet Yesevi sempozyumu bildirileri. S. 13-22;
13. Amanguliyeva G. Hakim Süleyman Ata. Ankara Üniversitesi TÖMER Türk Lehçeleri ve Edebiyatı Dergisi, sy. 15, Haziran, Ankara 1997, s. 38-44.
14. Amanguliyeva G. Hakim Süleyman Ata. SÜ Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Türkiyat Araştırmaları Dergisi. Sy. 3, S. 38-39;
15. Amanguliyeva, G., "Mahtumkulu'nun Manevî Üstadlarından Birisi: Yesevî Dervîşi Hakîm Ata", Bılıg Dergisi, S.13, 2000, s.79-92.
16. Banarlı N.S. Resimli Türk edebiyatı. C.1. İstanbul, 1972;
17. Barkan Ö.L. Kolonizator Türk dervişleri. İstanbul (senesiz);
18. Begali Kasimov. "Keyingi Davr Özbek Adabiyatında Yassaviy An'anaları"; Halyigit Sanakul. "Hoca Ahmet Yassevi'nin Yaşagan Devrideki Siyasî, İctimayî ve Dinî Şart-Şaraitleler"; Dilaram Nişanova. "Hoca Ahmet Yesevî Hakkında Özbekistandagi Tatlikadlar". Milletlerarası Hoca Ahmet Yesevi Sempozyumu Bildirileri, Kayseri, 1993;
19. Begali Kasimov. Taşkent Şarkiyat Fondunda Ahmed Yesevi kitapları; Nigmetov. Yesevi'ye ait bazı seneler. Milletlerarası Ahmed Yesevi Sempozyumu Bildirileri. - Ankara, 1992;
20. Brockelmann, Carl, Ali's Qissa'i Jusuf, der Älteste Vorläufer der Osmanischen Literatur, Berlin 1917;
21. Carmuhamedoğlu M. Hoca Ahmed Yesevi'nin hayatı hakkında yeni deliller ve yeni bulunan "Risale" eserinin ilmi değeri. Hoca Ahmed Yesevi: hayatı, eserleri, tesirleri. İstanbul, 1996;
22. Carmuhammedulı M. Hoca Ahmet Yesevi ve Türkistan. Yeni Avrasya yayınları. Ankara, 2001;
23. Gibb E. A History of Ottoman Poetry. London, 1958;
24. Eraslan K. Divan-i Hikmet'ten seçmeler. Ankara, 1983;
25. Evliya Çelebi. Seyahatname. Tam metin, IV.kitap, İstanbul: Yapı Kredi yay., 2000;

26. Geldiyev K. Türkmenistan'da Hoca Ahmed Yesevi'nin araştırılması. *Hoca Ahmed Yesevi: hayatı, eserleri, tesirleri*. İstanbul, 1996.
27. Geldiyev K. Hoca Ahmed Yesevi ve XVIII-XIX asır Türkmen şiiri // Milletlerarası Hoca Ahmet Yesevi Sempozyumu Bildirileri. 26-29 Mayıs 1993. Kayseri, Erciyes Üniversitesi Yayınları;
28. Hacı Bektaş-ı Veli. Makalat. Haz. Es'ad Coşan, Ankara 1971;
29. Hacim Sultan. Vilayet-name, Das Vilayet-name des Hacim Sultan. Haz. Tschudi R. Berlin, 1914;
30. Hakimcan F. Ahmed Yesevi ve Orta Çağ İdil boyu edebi dili // Milletlerarası Hoca Ahmed Yesevi Sempozyumu bildirileri. Kayseri, 26-29 Mayıs 1993.
31. Haziret Sultan Ahmet Yasaviy. Hikmet. "Jalin baspasi" Alma-Ata, 2002;
32. <http://www.unesco.org.tr/Pages/132/149/Anma-ve-Kutlama-Yönümleri>
33. Kafesoğlu İ. Türk Milli Kültürü, İstanbul, 1995;
34. İbrahimov Ş. Ahmed Yesevi düşünceleri ve tengrilik. I-Uluslararası Hacı Bektaş Veli sempozyumu bildirileri. 27-29 Nisan 2000. Ankara, 2000. S. 89-92;
35. Iz F. Ahmed Yesevi. Encyclopedie del Islam (nouvelle edition) I/308;
36. Jandarbek Z. Ahmed Yesevi'nin Türk tarihindeki yeri / Uluslararası Hoca Ahmed Yesevi Sempozyumu. 20-21 Şubat 2010. Bağcılar-İstanbul;
37. Jandarbek Z. Yassawiya i etnicheskaya istoriya naseleniya Dasht-i Kipchaka / Podvijniki Islama. Kult svyatih i sufism v Sredney Azii i na Kavkaze. M., 2003. S. 326-335;
38. Jandarbekov Z. Qoja Akhmet Yasaui Jibek yoli. №1-2. Almati: Kazakistan, 1993. 17-19;
39. Şahin K. Ahmed Yesevi'nin ilham kaynakları ve Sarı Saltık / Renkler, İstanbul, 1993;
40. Yuje K. Hoja Ahmad Yassavi'ning halifası Sarı Saltuq // Hoja Ahmad Yassavi: hayatı, izdoshları, an'anaları. Toshkent, 2001.
41. Kenjetay D. Yesevilik kültürü ve ilmi ateizm. Tasavvuf dergisi. Yıl 1. Sy. 3, 2000, s.167-178;
42. Kojayev M. Yesevi'nin ustası Arslan Bab. Şimkent: Jibek Yolu, 1997;
43. Köprülü F. Edebiyat Araştırmaları. İstanbul, 1989; Köprülü F. Türk Edebiyatı Tarihi, Ankara, 2004; Köprülü F. Ahmed Yesevi // İslam Ansiklopedisi. C. I. İstanbul, 1985. S. 210-215;
44. Köprülü F. Orta Asya Türk dervişliği hakkında bazı notlar. Türkiye Mecmuası, C.XIV. 1964. İstanbul, 1965. S. 259-262;
45. Köprülü F. Türk Edebiyatında İlk Mutasavvıflar. Ankara, Diyanet yayınları, 1991;
46. Kydyr T. Kazakistan Milli kütüphanesindeki Süleyman Bakırgani eserinin Kazakistan'da yayınlanması ve araştırılması/Uluslararası Hoca Ahmed Yesevi Sempozyumu, 20-21 Şubat 2010, Bağcılar-İstanbul;
47. Tahralı M. Yunus Emre'nin şiirlerinde tasavvufi mefhumlar akışları. Kubbealtı Akademik Mecmuası. İstanbul, 1992/1, s.13;
48. Махметвели Кеминә. Эсерлер йиғиндиси (чапа тайяр. Мередов А, Холмұхамедов С). Ашқабат, 1971;
49. Mirhaldaroglu M. Akar M. Hoca Ahmed Yesevi'nin yeni bulunan hikmetleri. İstanbul, 2002.
50. Muminov A. Türkistan'da Yesevilik tarihi üzerine yeni kaynaklar. Uluslararası Hoca Ahmed Yesevi Sempozyumu. 20-21 Şubat 2010. Bağcılar-İstanbul;
51. Muminov A. Yeseviyye tarikatının doğuşu hakkında, Yedi İklim, Sanat, kültür, edebiyat dergisi. C.5, sy.42, Eylül 1993, s.10-13;
52. Mursel Öztürk. Ahmet Yesevi, Haci Bektaş-ı Veli ve Yunus Emre. Erdem. C. III/III, Ankara, 1987, s.759-768;

53. Nişanbay A. Qoja Ahmet Yassawidin duniyetanimi men filosofiyasi // Bir, 3. 1995, s.75-87;
54. Nişanbayev A. Hoca Ahmed Yeseni'nin dünya görüşü. I-Uluslararası Hacı Bektaş Veli sempozyumu bildirileri. 27-29 Nisan 2000. Ankara, 2000. S. 316-337;
55. Nurmuhamedov N. Ahmed Yesewi architectural complex. Almati, 1998;
56. Nurmuhammedoğlu N. Hoca Ahmed Yeseni türbesi. Ankara, 1991;
57. Ocak A.Y. Anadolu sufiliğinde Ahmed-i Yeseni ve Yesevilik // Türk Dili aylık dil dergisi. Hoca Ahmed Yeseni özel sayısı, Sy. 504/Aralık, 1993;
58. Ocak A.Y. Türk Sufiliğine Bakışlar. İstanbul, 1999;
59. Öztürk Y.N. Yesevilik//Yesevilik bilgisi. Haz. C.Kurnaz, M.Tatçı. Ankara, 2000, s.274-276;
60. Qoja Ahmet Yassawi. Hikmetter. Almaty, 1995;
61. Qoja Akhmet Iasaui. Diuani khikmet (Aqil kitabı) Ed. M.Jarmuhameduli. Almaty: Murattas, 1993;
62. Ebû'l Hayri Rumî, Saltukname I-II, haz. Ş.H.Akalın. Ankara, s.1988-1990;
63. Th. Menzel. Die Aeltesten Turkischen Mystyker. Zeitschr. der Deutsch. Morg. Ges. T. 79, 1925 ("Немис күнчикар мамлакатлари" жамияти журнали, Олмония, Лейпциг), 269-289 бет;
64. Tuyakbayev M. Hoca Ahmed Yeseni kesenesinde yerleşen Muhammed ırpakları, Yeseni Tağılımı. Türkistan: Ahmed Yeseni Uluslararası Kazak-Türk Üniversitesi, Hazret Sultan Korık Muzeyi, s.96-105;
65. Vilayet-name. Manakıb-ı Hünkar Hacı Bektaş-i Veli. Abdulkaki Gölpinarlı. İstanbul (senesiz);
66. Yılmaz A. Ahmed Yeseni'nin hikmetleri ile Yunus Emre'nin şiirlerinde tasavvufi muhteva benzerlikleri // Diyanet İlmi Dergisi. C.29. Sy.4. 1993;
67. Yunus Emre. Divan ve Risaletu'n-nushiyye. Haz. M.Tatçı. Ankara, 2004;
68. Toğan Z.V. Hatıralar. Ankara, TDV yayınları, 1999;
69. Toğan Z.V. Umumi Türk Tarihine Giriş, İstanbul, Enderun kitabevi, 1981;
70. Toğan Z.V. Yesevilige dair bazı yeni malumat. 60 Doğum yılı münasebetiyle F.Köprülü armağanı. İstanbul, 1953. S. 525-527;
71. Аvezov A. "Мадинада Мухаммад, Туркистанда Хожа Аҳмад". Москва, 1992;
72. Алиев А. Тилимиз донишманди, "ЎзАС", 1993, 29 октябрь;
73. Абдирасилкызы А. Кожа Ахмет Йасаудин ақиндик алеми. Алматы, 2007;
74. Абдураҳмон Саъдий. Яссавий ким эди? // "Инқилоб", 2/1922);
75. Агаджанов С.Г. Очерки истории огузов и туркмен Средней Азии IX-XII вв. Ашхабад: Ылым, 1969;
76. Азирет Султан Хожа Ахмет Йасауи. Конилдин айнаси (Мират-ул қулуб). Дайиндаған: Досай Кенжетай Турсинбайұлы. Қыркүйек. Анқара, 2000;
77. Али Асқар Калинин. Ходжа Ахмад Ясави / Туркестанские ведомости, 126/1906;
78. Ахмеров П.Н.. Описание печати Ахмеда Ясави. Надписи мечети Ахмеда Ясави // Восточные заметки. Статьи и исследования А.А.Диваева, П.Н.Ахмерова и Н.О.Катанова. Казань, 1896. С. 3-24;
79. Аҳмад Сардор. Ҳазрати Хожа Аҳмад Яссавий // "Шўро" журнали. 24/1915, Уфа;
80. Басенов Т. Мемориальный комплекс Ахмеда Яссави. Алматы. Алма-Ата, 1972;
81. Бертельс Е.Э. Литературное прошлое туркменского народа // Совет эдебияти. Ашхабат, №9-10/1944;

82. Боровков А.К. Очерки по истории узбекского языка (Определение языка хикматов Ахмада Ясеви) // Советское востоковедение. Т. V. М.; Л., 1948. стр. 229-250;
83. Брагин А. Третье рождение. Туркестанская повесть. Алма-Ата, 1984;
84. Гарбузова В.С. Турк адабиёти классиклари. Тошкент, 1960;
85. Демидов С. Суфизм в Туркмении (эволюция и пережитки). Ашхабад, 1978;
86. Диваев А. Подлинный текст жалованной грамоты даной Тимуром Туркестанской мечети Хазрата Яссави // ПТКЛА, Год 2, 1897, с.75-80;
87. Дукенбай Досжан. Қожа Ахмет Иассауи ғимараты. Алматы, 1996;
88. Ҳаққұл И. Олдингдан оққан сувнинг... “ҮзАС” 2004, 1 октябрь;
89. Қожа Ахмет Ясауи мұраси мен илиминин зерттелу меселелери. Халықаралық гылыми-тәжирибелік конференция. 30 Қыркүйук 2008, Туркістан;
90. Қожа Ахмет Ясауи. Хикметтер (ЮНЕСКО) Алматы, 2000;
91. Қожа Ахмет Иассауи. Диуани хикмет. Баспаға дайындаған Д.Серікбайұлы. Масъул мұҳаррір С.Рафиддинов. Алматы, 2001;
92. Мирхолдорұғли М. Ахмад Яссавий кароматлари. Чимкент, 2003;
93. Муминов А. Ясауийа бастаулары / Сборник статей «Ясауи тағылымы». Туркестан: 1996, С.22-30;
94. Самойлович А.Н. Материалы по Среднеазиатско-турецкой литературе, II-III, стр. 127-153 (Стихи Давлат-Мухаммеда Молла отца Махтумкули) // ЗВОРАО, Т.XXII (1913-14). Петроград, 1915. С. 146-147;
95. Самойлович А.Н. Махтум-Кули и Ҳаким-Ата // Туркменоведение, № 12. 1929;
96. Самойлович А.Н. Очерки по истории туркменской литературы. В кн: Туркмения, вып. (том) 1. М., 1929. С. 136, 186;
97. Семенов А. Мечеть Ходжи Ахмеда Есевийского в г. Туркестане / Известия Среднеазиатского комитета по делам музеев, охраны памятников старины, искусства и природы. Средазкомстарис, выпуск 1, Ташк., 1926, стр. 121-130;
98. Сибгатуллина А. Ахмад Яссавий ҳикматларининг татар адабиётига таъсири ҳақида // Ҳожа Ахмад Яссавий: ҳаёти, ижоди, таъсирлари. Т., 2001;
99. Ёлчиғұл Т. Рисолаи Азиза. “Сабот ул-ожизин” шархи. Нашрға тайёрловчи Ботирбек Ҳасан. Т., 2000.
100. Такибаева С. Тайны небесной глазури. Алма-Ата, 1987;
101. Татар адабиёти тарихи. 1-жилд. Қозон, 1984;
102. Туркман адабиёти тарихи. 1-жилд: Үрта асрлар даври адабий мероси. Ашхобод, 1975;
103. Усманов Х. Вклад Кул Гали в развитие Тюркского стиха // Поэт-гуманист Кул Гали. Казань, 1987;
104. Ҳожа Ахмад Яссавий ҳаёти ва ижодини ўрганиш масалаларига бағишенланган халқаро илмий анжуман. Туркистон, 1993;
105. Ҳаққұлов И. Ўзбек тасаввуф шеъриятининг шаклланиши ва тараққиёти (ғоявийлик, издошлиқ, образлар олами). ДД. Тошкент, 1995;